BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MAVZULARNI MUSTAHKAMLASHDA QO‘LLANADIGAN USUL HAMDA DIDAKTIK O‘YINLAR

Boborahimova Nilufarxon To‘lanboyevna
Farg‘ona viloyati Quva tumani
56-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: *ushbu ilmiy maqolada umumta’lim maktablarining boshlang‘ich ta’limida mavzularni mustahkamlashda qo‘llanadigan usul hamda didaktik o‘yinlar bo‘yicha mulohazalar keltirib o‘tilgan.*

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: *Zamonaviy usul hamda didaktik o‘yinlarlarning boshlang‘ich ta’limda tutgan o‘rnini ko‘rsatib berish.*

Usullar va o‘yinlar: *“Estafetali bellashuv”, “Tilak”, “Rasmli shakl”, “Rasmni o‘qi”usul va didaktik o‘yinlari.*

Natija: *Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning zamonaviy yangi metodlar bilan bilim, ko‘nikma va malaka hosil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich, bilim, didaktik, zamonaviy usullar, pedagog, imlo…*

The method and didactic games used to strengthen subjects in primary education

Abstract: *in this scientific article, comments on the method and didactic games used to strengthen subjects in primary education of general education schools are presented.*

The purpose of writing this article: *To show the modern method and the role of didactic games in primary education.*

Methods and games: *"Relay competition", "Tilak", "Picture form", "Read the picture" method and didactic games.*

Result: *In primary education, students' knowledge, skills and competence are formed with modern new methods.*

Key words: *elementary, knowledge, didactic, modern methods, pedagogue, spelling...*

Методика и дидактические игры, применяемые для закрепления предметов в начальных классах

Аннотация: *в данной научной статье дается методика закрепления предметов в начальном обучении общеобразовательных школ и комментарии к дидактическим играм.*

Цель написания данной статьи: *Показать современный метод и роль дидактических игр в начальном обучении.*

Методы и игры: *«Эстафета», «Тилак», «Форма-картинка», метод «Прочитай картинку» и дидактические игры.*

Результат: *В начальном образовании знания, умения и компетенции учащихся формируются современными новыми методами.*

Ключевые слова: *элементарное, знание, дидактика, современные методы, педагог, правописание...*

Barchamizga ayonki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng ta’lim sohasini tubdan isloh qilishga juda katta e’tibor qaratildi. Shu yo‘lda ko‘plab qonunlar, qarorlar, nizom va dasturlar hayotga tadbiq etilgani so‘zimizning isbotidir. Maktab ishi uchun eng muhim hujjatlardan biri bo‘lgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning milliy modelidagi bosh muddao – bu komil inson tarbiyasi, mustaqil fikrlovchi ijodkor shaxsni tarbiyalash masalasidir. Shu bois biz pedagoglar katta mas’uliyatni sezgan holda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘z ishimizga jiddiy yondashmog‘imiz lozim. Shu sababli har bir darslarni innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Quyida boshlang‘ich ta’limda foydalaniladigan shunday didaktik o‘yin va interfaol usullardan bir nechtasini tushuntirishni joiz topdim.

1.“ESTAFETALI BELLASHUV” didaktik o‘yini.

O‘yinning qo‘llanilishi: Bu usul barcha darslarning oxirida, predmetning biron-bir bo‘limi tugallanganda, o‘tilgan mavzularni baholash, takrorlash, mustahkamlash, o‘zaro bellashishga mo‘ljallangan.

O‘yin maqsadi: dars jarayonida o‘quvchilarni aniq, tezlik bilan xatosiz javob berishga va albatta, aniq va to‘g'ri qarorga kela olishga undashdan iborat. O‘yin uchun kerak jihozlar: Savollar blankasi; estafeta tayoqchasi (bayroqchadan foydalanish ham mumkin) o‘quvchilarni guruhlarga ajratuvchi raqamli qog'oz, qaysi guruh o‘yinni boshlashini aniqlovchi biron-bir predmet.

O‘yinni o‘tkazish qoidasi:

Dastlab guruh o‘quvchilari 2- jamoaga bo‘linadi;

Ularning joylashishi va harakatlanishi quyidagidek amalga oshiriladi (1-rasm);

O‘qituvchi


O‘quvchilar	
2→	1↑
↑3	←4
6→	5↑
↑7	←8
10→	9↑

O‘quvchilar	
↑1	←2
4→	3↑
↑5	←6
8→	7↑
↑9	←10

1-rasm. Guruh a’zolarining partalarda joylashishi va harakatlanish sxemasi Demak, jamoa a’zolari yuqoridagi sxemada ko‘rsatilganidek, partalarga joylashishadi. Qaysi guruh birinchi bo‘lib boshlashi qur’a tashlash yo‘li bilan aniqlanadi.

O‘yin parta oxiridan boshlanadi. O‘qituvchi o‘yinni birinchi bo‘lib boshlaydigan jamoa ishtirokchisiga dastlabki savolni beradi. Ishtirokchi berilgan savolga javob bersa, qo‘lidagi estafeta tayoqcha (bayroqcha)sini sherigiga ko‘rsatilgan (1-rasm) sxema bo‘yicha uzatadi. Agar savolga javob qaytara olmasa, qo‘lidagi estafeta tayyoqcha (bayroqcha)si o‘zida qoladi. O‘qituvchi keyin raqib jamoaning ishtirokchisiga savol beradi. Bu ishtirokchi ham javob bersa, qo‘lidagi estafeta tayoqcha (bayroqcha)sini sherigiga ko‘rsatilgan sxema bo‘yicha uzatadi, javob bera olmasa, qo‘lidagi estafeta tayyoqcha (bayroqcha)si o‘zida qoladi. Estafeta tayyoqchasini qatnashchilar bir-birlariga navbat bilan uzatib borishadi. Estafeta tayoqchasini faqat savolga javob bergandagina uzatishga ruxsat beriladi. Shu tarzda savol-javob qaysidir guruh qo‘lidagi estafeta tayyoqchasini to‘garak rahbariga birinchi bo‘lib etkazib borishiga qadar davom etadi. Estafeta tayyoqchasini jamoa a’zolari qoidani buzmasdan, vazifani aniq va tezda bajarib, birinchi bo‘lib o‘qituvchiga yetkazib, o‘sha jamoa g’olib deb topiladi. Jamoa a’zolarining o‘yindagi, ishtirokini o‘qituvchi aniqlab boradi va mashg’ulot so‘nggida ularni baholaydi. Bunda ishtirokchining o‘ziga berilgan har bir savolga birinchi imkoniyatda javob qaytarib, estafeta tayyoqchasini sherigiga vaqtida uzatib borishi hisobga olinadi.


O‘yinning oltin qoidasi: Agar o‘quvchilar savollarga javob berish jarayonida boshqa o‘quvchilar tomonidan aytilgan fikrlarni takrorlashga yo‘l qo‘ysalar, o‘yindan chetlatiladilar.



“Tilak” usuli. Bu darsda o‘quvchilar doira shaklida o‘tirib oladilar va oldidagi o‘quvchiga “Men sizga chin ko‘ngildan omad tilayman, xushkaufiyat, baxt tilayman”, deydi.Shu tariqa bolalar bir-biriga dunyodagi eng yaxshi tilaklarni bildiradi.Chiroyli tilak bildirgan o‘quvchiga 5 ball bilan baholanadi. Hamma chiroyli tilak bildirib bo‘lgandan so‘ng o‘qituvchi bolalarga yuzlanib:

-Qadrli bolalar, dunyoda barcha xalqlar, millat-u elatlar bir-biriga tilaydigan eng yaxsh, go‘zal tilak nima, bilasizlarmi? Shubxasiz, tinchlik-xotirjamlik, el-yurt farovonligi.Bugun

yurtimiz shu aziz ne’mat tufayli taraqqiy etib, qo‘llab olamshumul yutuqlarga erishyapti. Barcha baxtli, tinch-farovon hayot kechirmoqda.Bundan ortiq baxt bormi?-deya “Aqliy hujum” uyushtiradi. O‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, Vatanni ta’riflashadi. Vatan-ota-onamiz, bizni ulg‘aytirgan beshigimiz, yashayorgan xonadonimiz, ta’lim ilayotgan maktabimiz, qishlog‘imiz, so‘lim go‘shamiz, mustaqil O‘zbekistonimiz, tayanchimiz, iftixorimiz, nurli kelajagimiz, deya o‘z fikrlarini bildirishadi.



Xullas, ta’lim jarayonida nafaqat ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar hamkorligidan iborat faol usullarni, balki ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni ham ta’minlovchi interfaol usullardan ham foydalanishi, ya’ni o‘quv dialogi va polilogi loyihasini ishlab chiqishi kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mavlonova R. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya. – T.:1993-yil
2. . Gaffarova T. “Boshlang’ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”-T.: “Tafakkur” 2011-y
3.Internet saytlari va metodik qo‘llanmalar.